



BOSHLANG'ICH SINFDAN MATN USTIDA ISHLASH ORQALI TO'G'RI TALAFFUZ KO'NIKMALARINI HOSIL QILISHDA FONETIK MASHQ VA TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Atamurodova Gulnora Shermurodovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, Samarqand shahar 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12779993>

Annotatsiya: Ona tili darslarida nutqiy malakalarni shakllantiruvchi hamda o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qilishga yo'naltiruvchi mashq va topshiriqlardan tizimli foydalanish.

Kalit so'zlar: nutqiy malaka, talaffuz va imlo, mantiqiy fikrlash, adabiy talaffuz, imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'g'ri talaffuz o'qitishni samarali bo'lishiga erishish uchun amaldagi o'quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o'quvchida, avvalo, o'quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma'lumotdan unumli foydalanish ko'nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. O'quvchiga taqdim etilayotgan o'quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga o'quvchida ikki yoki uch zaruriy (adabiy talaffuz, imlo savodxonligi, zarur so'z boyligi va mustaqil ishlash) malakalarini shakllantirishga xizmat qila olsa, ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi. O'quvchiga to'g'ri talaffuzga doir biror topshiriq berishda nutq tovushlari haqidagi ma'lumotlarni berish asnosida imkon qadar unda ravon nutq, mazmunli muloqot malakasini, mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirishga erishish darsning samaradorligini ta'minlaydi. Shu o'rinda o'quvchiga tahlil uchun berilgan mashq yoki topshiriq mazmuni oddiy xabar emas, balki hikmatlar, iboralar, tasviriy ifodalar, yashash qoidalariga teng bo'lgan xalq maqollari, xalq dostonlaridan zarur parchalar shaklida bo'lsa, bir paytning o'zida darsning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadlari amalga oshadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko'rilmoqda. Jumladan, I. Davronovning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir [1, 188]. Biroq ona tili o'qitishda shunday mavzular bo'ladiki, ularning ta'limida didaktik o'yinlardan ko'ra an'anaviy amaliy ishlar





orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, talaffuzning imloga va, aksincha, yozuvning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamonu zaminlar o'zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta'limning birinchi darajali muammosi bo'lib qolaveradi. (Davrimiz kishilarining savodxonlik darajasi bilan maqtanib bo'lmay qoldi. Maktab partasida o'tirgan o'quvchining yozma nutqini imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolardan tozalashga o'qituvchilarning qurbi yetmay qolayotganligini hech bir sabab bilan oqlab bo'lmaydi.)


O'quvchilar o'z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsalar, ona tili ta'limi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. *Bir paytning o'zida ham talaffuz, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.*

O'quvchi nutqiy malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi to'g'ri talaffuz, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya bo'limlarini o'qitishda mashqlardan muntazam foydalanish, qolgan bo'limlarni esa topshiriqlar asosida o'qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi.

Avvalo, boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklarida talaffuz va imlo qoidalarini amaliy singdirishga ko'proq e'tibor qaratilishi, talaffuz ustida ishlash keyingi sinflarda ham uzluksiz davom ettirilishi lozim. Zero, madaniyatlikning eng muhim belgisi kishining to'g'ri so'zlay olishi hamda xatosiz yoza bilishidir.

Nutqning ta'sirchan, mazmunli bo'lishida tilning so'zdan boshqa ifoda vositalaridan ham o'rinli va unumli foydalanish lozim. Masalan, xalq maqollari nafaqat "Adabiyot", balki "Ona tili" darsliklarida ham ko'proq keltirilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. U «yashash qoidalari» sifatida o'quvchiga oddiy misolga qaraganda ko'proq ma'lumot beradi. Xususan, to'g'ri talaffuz mavzularini o'qitishda bu jihatga e'tibor qilish zarurati mavjud. Chunki, to'g'ri talaffuz tovushlar talaffuzi bilan bog'liq bo'lib, maqollar ma'lum ohangdorlikka egadir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mashq va topshiriqlar ta'lim mazmuni hisoblangan darsliklar tarkibiy qismi bo'lishidan tashqari, alohida tizim sifatida ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Fizika, matematika fanlaridan masalalar to'plami, tizimi mavjud. Biroq ona tili o'qitishga doir maxsus mashq va





topshiriqlar tizimi amaliyotda faol qo'llanilmaydi. Shu ma'noda ishimizda tilning tarbiyaviy ahamiyatga ega ifoda vositalaridan foydalanildi. Ayniqsa, to'g'ri talaffuz o'qitishda o'quvchining ma'naviy olamiga chiroq yoqa oladigan xalq maqollaridan o'rinli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat xalq maqollarining tarkibi qofiyadosh so'zlardan iborat bo'lib, ular o'quvchiga muayyan unli va undosh tovushlarning nozik talaffuz xususiyatlarini ko'rsatib berishda juda qo'l keladi. Oddiy jumlada ishtirok etgan so'z tarkibidagi tovushdan ko'ra she'riy misra tarkibidagi tovush talaffuzi o'quvchi tafakkuriga tezroq ta'sir ko'rsatadi. Maqollar asosida esa ham nazariy ma'lumotlarni, ham o'quvchiga kelajak hayotida asqotadigan muhim o'gitlarni anglatish imkoni bo'ladi. Keltirilgan maqollarning mavzu doirasi to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, do'stlik, kamtarlik va ilm xosiyatlari to'g'risida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada, masalan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan maqol namunalaridan foydalanish ham mumkin. *Tirishqoqning labi yog'liq – erinchoqning boshi qonlik. Yoshlikda tirishib harakat qilgan odam katta bo'lgach sevinadi. Baxt belgisi ilmdir. Odobning boshi – til* [2, 47].

Bugungi darsliklarimizda kam uchrasa-da, o'tgan asrning 50 yillari "Ona tili" darsliklarida xalq maqollaridan unumli foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Deyarli har bir mavzuni tushuntirishda xalq maqollari va dostonlaridan namunalar keltirilgan. Masalan, nutq tovushlari mavzusini mustahkamlash uchun berilgan 2-mashqda nazariy jihatdan o'quvchilar berilgan maqollardan tor, o'rta keng va keng unilarni aniqlasalar, ikkinchi tomondan, ishchanlik va yalqovlik; bilimdonlik va nodonlik; botirlik va qo'rqqoqlik; bir so'zlilik; hunarli bo'lishning foydalari; ahillik hamda to'g'riso'zlik kabilarni o'zida aks ettirgan ko'plab maqollar keltirilganki, bu tajribadan hozirda ham foydalanish juda zarur. Oddiy matnga qaraganda ko'proq yodda qoladigan va o'quvchining so'z boyligini oshiradigan maqol tarkibli bunday mashqlar darslik so'ngigacha o'rni bilan davom etgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda ona tilidan noan'anaviy darslar tashkil etish ham mumkin. Xususan, tez aytishlar musobaqasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchining og'zaki nutqini ravonlashtirishda muhim o'rin tutadi, ya'ni o'zbek tilida nutq tovushlari va ularning o'ziga xos akustik xususiyatlarini o'rgatish samaradorligini oshiradi.

Masalan, "Urg'u" mavzusini o'tayotganda umumiy ma'lumotga ega bo'lingandan so'ng, aytaylik, Afzal Rafiqov, Sanjar Sa'dullaev yoki Zulxumor Mo'minova tomonidan ifodali o'qilgan bir she'r, bir nasriy matnning audio yoki video varianti qo'yib eshittirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni ham






ta'kidlash kerakki, notiqlarning ham ayol, ham erkak kishilardan iboratligi e'tiborga olinishi kerak. Nutqda to'g'ri talaffuzdan tashqari ohang masalasi ham mavjud bo'lib, u ayol va erkak (o'g'il va qiz) kishilarda ma'lum ma'noda farqlanadi. Shuning uchun darsda ikkala jinsdagi notiqlar nutqidan ham baravar foydalanish o'rinidir.

O'quvchilarni matn ustida ishlashga yo'naltirish ham yetarlicha samara beradi³. Ularga ibratli hikoyatlar, she'riy va dramatik matnlarni yodlab, ifodali aytib berish topshirilishi mumkin. Nasriy matnlarni yodlashga avval unchalik ehtiyoj bo'lmagani bois uni yod olish va aynan so'zlab berishda dastlab o'quvchilar qiynaldi. Darsni har tomonlama samarali tashkil qilishni ko'zda tutib, o'quvchilar matnlarni, hikmatli so'zlarni yoddan aytayotganda ularning og'zaki nutqidagi tovushlar talaffuzi, urg'u va ohang bilan bog'liq xato-kamchiliklar aniqlanadi, ularni bartaraf qilish uchun maxsus mashqlar tavsiya qilinadi. O'quvchining nutqi ta'sirchan, jozibali bo'lishi uchun unda ulkan so'z boyligi ham bo'lishi kerak. Mashg'ulotlar davomida yuzga yaqin ibratli hikoya, she'r va hikmatli so'zlar yodlanadi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchiga zaruriy nutqiy malakalarning shakllanish sharoitini yaratib berishi lozim. Bola o'z tilida ham og'zaki, ham yozma shaklda mantiqan izchil, nutq sharoitiga mos ravishda fikr ifodalay olishga erishishi uchun zarur so'z boyligiga, adabiy talaffuz ko'nikmasiga ega bo'lishi; imloviy savodxon va ijodiy tafakkur sohibi bo'lishi talab etiladi. Bu borada o'quvchilarda nutqiy malakani kompleks tarzda hosil qilish usuli yaxshi samara beradi.

Ona tili darslarida nutqiy malakalarni shakllantiruvchi asosiy o'quv materiallari bu mashq va topshiriqlar tizimidir. Tadqiqotchi T.G'anievning ona tili bo'yicha mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirishga bag'ishlangan tadqiqoti ham bu borada muhim ahamiyatga ega [3, 12]. Shunga qaramay, ona tili o'qitishda, ayniqsa, adabiy talaffuz bilan bog'liq muammolar hali o'z yechimini topgan emas. Bu borada ijobiy natijalarga erishish mashq yoki topshiriqning sifati, berilishiga bog'liq. Agar topshiriq maqsadli, puxta o'ylangan holda tuzilsa, ya'ni birvarakayiga uch yoki to'rt nutqiy ko'nikmani shakllantirishga imkoniyat yarata olsa, nihoyatda foydali bo'ladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan ona tili o'qituvchilarining hammasini ham tajribali, malakali, saviyasi bir xilda yuqori deb bo'lmaydi. Belgilangan dastur bo'yicha faoliyat olib borilayotgan va zamonaviy interfaol usullar dars jarayoniga tatbiq qilinayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarda nutqiy kompetensiya kutilgandek rivojlanmayotgani tajriba-sinov jarayonida, qolaversa, oddiy kuzatuvlarda ham ma'lum bo'lyapti. Agar darsni qanday tashkil





etish, xususan, ona tili darslarida, to'g'ri talaffuz, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikma va malakalari bir xil bo'lmazligi muqarrar. Talaffuz va imlo qoidalari esa bir xillikni taqozo etadi. Shu ma'noda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni avtomatlashtirish masalasi juda dolzarb bo'lib qoladi.

Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, o'quvchi uchun o'ta zarur bo'lgan *to'g'ri talaffuz, imloviy savodxonlik, mantiqiy fikrlash* ko'nikmalari, *so'z boyligining muntazam oshishi* uzuq-yuluq mashg'ulotlar bilan emas, balki tizimli ravishda, maxsus mashq va topshiriqlar tizimi asosida uzluksiz, amaliy ishlash orqali hosil qilinadi. Bu – tizimli takrorlanishga olib keladi, natijada ko'nikma va malaka shakllana boshlaydi.

Ona tili ta'limi maqsadi nuqtai nazaridan yondashilganda, nutqiy malakalarni kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beruvchi maxsus topshiriqlar tizimini, darsda ulardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish zarurati borligi aniq seziladi.

Mazkur ishimizda pedagogik texnologiya deganda uning xilma-xil ta'riflari ichidan rus olimi V.P.Bespalkoning: *"Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir"*, degan yondashuviga tayandik [...].

Umumiy o'rta maktablarning 1-4-sinf o'quvchilarida nutqiy malakalarni kompleks shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan pedagogik texnologiya o'qituvchidan yuksak mahorat talab qilmaydi. O'qituvchi faqat boshqarish va yo'naltirish vazifasini bajarsa, bas. Topshiriqni bajarish uchun o'quvchi o'qish va yozishni bilsa, kifoya.

Umumta'lim maktablarida ona tili o'qitishda turli yangi, zamonaviy usullardan uzluksiz foydalanilmoqda. To'g'ri talaffuz bo'limini, jumladan, nutq tovushlari talaffuzi va imlosini ta'lim muasasalarida o'qitish bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjudligi kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'lib qolayotganligi bizni mazkur izlanishlarimizga sabab bo'lganligini eslatib o'tmoqchimiz.

Ta'lim tizimida topshiriqlarning xilma-xil turlaridan foydalanib kelinadi. Jumladan, ona tili ta'limining modernizatsiya qilinishi munosabati bilan juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo o'quv topshiriqlaridan foydalanish masalasiga ko'p hollarda eskicha yondashilmoqda. Butun boshli topshiriq orqali






birgina ko'nikmani shakllantirish bugungi kun nuqtai nazardan kamlik qiladi. Hozirda ijtimoiy zarurat natijasida fan-texnika rivojlanib u so'zlashish bilan birga suratga olish, xat jo'natish, internetdan foydalanish kabi bir qator vazifalarni bajarish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Ilm-fan doimo insonlarning og'irini engil qilib kelgan.

Zamonaviy darsliklarda topshiriqlar ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilma vazifasini bajaradi. O'quvchi tafakkuri, so'z zaxirasini boyitmasdan turib, uning ravon, mantiqan izchil, ta'sirchan nutqi haqida gap bo'lishi mumkin ham emas. Bugun dars jarayonida juda ko'p qo'llanilayotgan "Matn tuzing" qabilidagi topshiriqlar endi o'zini oqlamayapti. Chunki o'quvchi o'zidagi nochor so'z boyligi, tor tafakkuri bilan istalgan mazmunni, kutilgan saviyada yozib bera olmaydi. O'quvchida ayni mavzuga aloqador muhim, foydali, ta'sirli ma'lumotlar juda kam yoki umuman bo'lmaydi.

Topshiriq mazmuni hisoblangan tahlil materiallari faqat nazariy ma'lumotlardangina iborat bo'lib qolmasdan, tilimizning rang-barang leksik boyliklari (masalan, ibora, tasviriy ifoda...)dan unumli foydalanishga mo'ljallangan bo'lsa, o'quvchi uchun har tomonlama foydalidir. Birinchidan, so'z ibora va tasviriy ifodaga qaraganda tushunchani mavhumroq ifodalaydi. Ibora esa so'zga nisbatan tushunchani aniqroq ifodalaydi, shuningdek, iboralar so'zga nisbatan ta'sirchan va obrazlidir. Masalan, *bu – yengil ish*, deyilganda uning naqadar yengil ekanligi mavhum. Ammo *bu ish – xamirdan qil sug'urganday* gap, deyilsa, ifoda aniq va ta'sirchan bo'ladi. O'quvchi shuni sezmagina, albatta, o'z nutqida iborani so'z bilan baravar qo'llashga odatlanadi. Ibora lug'atlarni to'ldirish uchungina yaratilmagan, o'quvchiga ulardan topshiriqlarni bajarishda, fikr ifodalashda o'rinli va unumli foydalanishni o'rgatish lozim. Bunday topshiriqlar o'tilayotgan mavzuga moslab, har darsda bajarilsa, bilimlar boyiydi, ko'nikmalar malakaga aylanib boraveradi.

Ma'lumki, qadimdan o'sharqda ta'lim berishning milliylik zaminidan uzilmagan, samarali usullari o'ylab topilgan va keng qo'llanilgan bo'lib, ishimizning zaruriy o'rinlarida ana shunday sharqona tajribalarga tayanildi. Dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Motrudiy, Imom al Buxoriy kabi o'nlab olimlar, o'z asarlarida eng ko'p so'z ishlatgan Alisher Navoiy kabi donishmand ijodkorlarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari aks etgan turli hajm va shakldagi matnlar ustida ishlash, ularning hikmatlarini yod oldirish, ulug'larning aytganlarini mushohada qilishga o'rgatish ona tili dars mashg'ulotlari uchun bugun ham juda ahamiyatlidir..





Adabiyotlar ro'yxati:

1. Davronov I. Algoritmik mashq va uning xususiyati. Filologiya va usuliyot masalalari. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. Buxoro, 2010, 188-193 b.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 3 tomlik. T.I. – T.: O'zbekiston FA, 1976. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. 3 tomlik. T.II. – T.: O'zbekiston FA, 1976 – 47-83 b.
3. G'aniyev T. Ona tili bo'yicha mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 1991, 12 b.
4. Ziyodova T. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. – Toshkent: RTM, 2000, 163 b.
5. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. –T.: Fan, 1972, 116 b.
6. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi –T.: Fan, 2008, 155 b.

